

«O'ZBEKISTON TEMIR YO'LLARI» AJ

TOSHKENT TEMIR YO'L MUHANDISLARI INSTITUTI

Oliy matematika kafedrası

D.B.Eshmamatova

A.A.Eshqobilov

Oliy matematika fanidan loyiha-hisob ishlari

(Sirtqi ta'lim shakli uchun)

II semestr

Toshkent 2020

UDK 516.517

Ushbu uslubiy qo'llanma "Oliy matematika" fani bo'yicha loyiha-hisob ishlarini bajarishda foydalanishga mo'ljallangan. Uslubiy qo'llanmada oliy matematikaning kompleks sonlar, boshlang'ich funksiya, aniqmas integral, aniq integral, ko'p o'zgaruvchili funksiyalar, karrali integrallar kabi bo'limlari bo'yicha misol va masalalar yechib ko'rsatilgan hamda qisqacha nazariy ma'lumotlar keltirilgan.

Uslubiy qo'llanma Toshkent temir yo'l muhandislari institutining professor-o'qituvchilari, hamda barcha texnik ta'lim yo'nalishlarining sirtqi ta'lim shaklida ta'lim olayotgan talabalar foydalanishlari uchun mo'ljallangan.

Institut Ilmiy-uslubiy Kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan.

Tuzuvchilar: D.B.Eshmamatova – f.-m. f. n., dots.;

A.A.Eshqobilov – katta o'qituvchi.

Taqrizchilar: A.A.Raximov – f.-m. f.d., prof. (O'zMU);

A.Artikbayev – f.-m. f.d., prof. (TTYMI).

KIRISH

“Oliy matematika” fanini (sirtqi bo’lim talabalari uchun) o’qitishdan asosiy maqsad talabalarda mantiqiy, algoritmik, abstrakt fikrlashlarni va matematik tafakkurni shakllantirish hamda rivojlantirishdan iboratdir. Shuningdek o’zining fikr-muloxazalarini, xulosalarini asosli tarzda bayon eta olishni o’rgatish, iqtisodning nazariy va amaliy masalalarini yecha olishga yetarli matematik apparatni egallashni va uni qo’llashni, hamda iqtisodiy masalalarning matematik modelini tuzish va tahlil qilishni o’rgatishdan iboratdir. Shu maqsadlarni amalga oshirishda mustaqil ish topshiriqlari, loyiha-hisob ishlari va ularni bajarish muhim o’rin egallaydi. Ushbu uslubiy qo’llanmada har bir mavzu bo’yicha nazorat topshiriqlari berilgan bo’lib, berilgan topshiriqlarni bajarish usullari tushunarli qilib bayon etilgan.

Mazkur uslubiy qo’llanma oliy matematika fanining kompleks sonlar, boshlang’ich funksiya, aniqmas integral, aniq integral, ko’p o’zgaruvchili funksiyalar, karrali integrallar kabi bo’limlarini o’z ichiga olgan. Har bir bobning boshida zarur nazariy tushunchalar va kerakli formulalar beriladi. Asosiy e’tibor nazorat topshiriqlaridagi misol va masalalarning yechilishiga qaratiladi.

1-LOYIHA-HISOB ISHI

1 – topshiriq

Mavzu: Kompleks sonlar va ular ustida amallar

Nazariy tushunchalar. Haqiqiy x, y sonlar yordamida tuzilgan $z = x + iy$ son kompleks son $i = \sqrt{-1}$ esa mavhum birlik deyiladi. Bunda x kompleks sonning haqiqiy qismi, y esa mavhum qismi deyiladi.

$z = x + iy$ yozuv kompleks sonning algebraik ifodasi deyiladi.

Agar $z_1 = x_1 + iy_1$ va $z_2 = x_2 + iy_2$ kompleks sonlar berilgan bo'lsa, ular ustida algebraik amallar quyidagicha kiritiladi:

$$z_1 \pm z_2 = (x_1 \pm x_2) + i(y_1 \pm y_2),$$

$$z_1 \cdot z_2 = (x_1x_2 - y_1y_2) + i(x_1y_2 + x_2y_1),$$

$$\frac{z_1}{z_2} = \frac{x_1 + iy_1}{x_2 + iy_2} = \frac{x_1x_2 + y_1y_2}{x_2^2 + y_2^2} + i \frac{x_2y_1 - x_1y_2}{x_2^2 + y_2^2}.$$

$z = x + iy$ uchun $\bar{z} = x - iy$ qo'shma kompleks son deyiladi. $z = x + iy$ songa tekislikdagi $A(x, y)$ nuqtani mos qo'yish mumkin, $x = r \cos \varphi$, $y = r \sin \varphi$.

$|OA| = r = \sqrt{x^2 + y^2}$ haqiqiy son kompleks sonning moduli, OA vektorni Ox o'qining musbat yo'nalishi bilan hosil qilgan φ burchagi esa kompleks sonning argumenti deyiladi.

$x = r \cos \varphi$, $y = r \sin \varphi$ ekanligidan $z = x + yi = r(\cos \varphi + i \sin \varphi)$ kelib chiqadi.

Bu yozuv kompleks sonning trigonometrik shakli deyiladi.

Trigonometrik shakldagi kompleks ustidagi amallar quyidagi xossalarga ega:

$$z_1 \cdot z_2 = r_1(\cos \varphi_1 + i \sin \varphi_1) \cdot r_2(\cos \varphi_2 + i \sin \varphi_2) = r_1 r_2 [\cos(\varphi_1 + \varphi_2) + i \sin(\varphi_1 + \varphi_2)],$$

$$\frac{z_1}{z_2} = \frac{r_1}{r_2} [\cos(\varphi_1 - \varphi_2) + i \sin(\varphi_1 - \varphi_2)],$$

$$z^n = [r(\cos \varphi + i \sin \varphi)]^n = r^n (\cos n\varphi + i \sin n\varphi),$$

$$\sqrt[n]{r(\cos \varphi + i \sin \varphi)} = \sqrt[n]{r} \left(\cos \frac{\varphi + 2k\pi}{n} + i \sin \frac{\varphi + 2k\pi}{n} \right), k = 0, 1, \dots, (n-1)$$

Oxirgi ikki formula Muavr formulalari deyiladi.

$e^{i\phi} = \cos\phi + i \sin\phi$ tenglik o'rinli bo'lib, Eyler formulasi deyiladi.

Mavzuga doir misollarni yechishga namunalar

1-misol. $2+i$ ni $2-i$ ga bo'ling.

Yechish. $\frac{2+i}{2-i} = \frac{(2+i)^2}{(2-i)(2+i)} = \frac{4+4i+i^2}{4-i^2} = \frac{3+4i}{5} = \frac{3}{5} + \frac{4}{5}i$, bunda $i^2 = -1$.

2-misol. $\alpha = (2+3i)$, $\beta = (4+i)$ sonlarni ko'paytiring:

Yechish. $(2+3i)(4+i) = 8+2i+12i+3i^2 = 5+14i$.

3-misol. $3+3i$ kompleks sonni trigonometrik shaklga keltiring.

Yechish. $a=3$, $b=3$, $r = \sqrt{a^2+b^2} = \sqrt{3^2+3^2} = \sqrt{18} = 3\sqrt{2}$, $\operatorname{tg}\varphi = \frac{b}{a} = \frac{3}{3} = 1$, (1,1)

nuqta birinchi chorakka tegishli bo'lganligi sababli $\varphi = \frac{\pi}{4}$ bo'ladi. Demak,

$$3+3i = 3\sqrt{2} \left(\cos \frac{\pi}{4} + i \sin \frac{\pi}{4} \right),$$

4-misol. Berilgan $\alpha = -1+i\sqrt{3}$ sonni trigonometrik shaklga keltiring.

Yechish. $r = \sqrt{1+3} = 2$, $\operatorname{tg}\varphi = \frac{b}{a} = -\sqrt{3}$, berilgan α kompleks songa mos

$(-1; \sqrt{3})$ nuqta ikkinchi chorakka tegishli bo'lganligi sababli $\varphi = \frac{2\pi}{3}$, demak,

$$-1+i\sqrt{3} = 2 \left(\cos \frac{2\pi}{3} + i \sin \frac{2\pi}{3} \right).$$

5-misol. Berilgan kompleks sonlarni ko'paytiring:

$\alpha = 3(\cos 15^\circ + i \sin 15^\circ)$, $\beta = 2(\cos 25^\circ + i \sin 25^\circ)$ va $\gamma = 5(\cos 20^\circ + i \sin 20^\circ)$.

Yechish.

$$\begin{aligned} \alpha \cdot \beta \cdot \gamma &= 3 \cdot 2 \cdot 5 (\cos(15^\circ + 25^\circ + 20^\circ) + i \sin(15^\circ + 25^\circ + 20^\circ)) = 30 (\cos 60^\circ + i \sin 60^\circ) = \\ &= 30 \left(\frac{1}{2} + i \frac{\sqrt{3}}{2} \right) = 15 + i15\sqrt{3}. \end{aligned}$$

6-misol. Quyidagi ildizni hisoblang: $\sqrt[3]{i}$.

Yechish. 1) Avval i ni trigonometrik shaklga keltiramiz. $r=1$ va $\varphi = \frac{\pi}{2}$.

Demak, $i = \cos \frac{\pi}{2} + i \sin \frac{\pi}{2}$. Endi Muavr formulaga ko'ra

$$\beta_k = \sqrt[3]{i} = \cos \frac{\frac{\pi}{2} + 2k\pi}{3} + i \sin \frac{\frac{\pi}{2} + 2k\pi}{3}.$$

Bu misolda $k=0,1,2$. Bundan,

$$\beta_0 = \cos \frac{\frac{\pi}{2} + 2 \cdot 0 \cdot \pi}{3} + i \sin \frac{\frac{\pi}{2} + 2 \cdot 0 \cdot \pi}{3} = \cos \frac{\pi}{6} + i \sin \frac{\pi}{6} = \frac{\sqrt{3}}{2} + \frac{1}{2}i,$$

$$\beta_1 = \cos \frac{\frac{\pi}{2} + 2 \cdot 1 \cdot \pi}{3} + i \sin \frac{\frac{\pi}{2} + 2 \cdot 1 \cdot \pi}{3} = \cos \frac{5\pi}{6} + i \sin \frac{5\pi}{6} = -\frac{\sqrt{3}}{2} + \frac{1}{2}i,$$

$$\beta_2 = \cos \frac{\frac{\pi}{2} + 2 \cdot 2 \cdot \pi}{3} + i \sin \frac{\frac{\pi}{2} + 2 \cdot 2 \cdot \pi}{3} = \cos \frac{3\pi}{2} + i \sin \frac{3\pi}{2} = -i.$$

Nazariy savollar va mashqlar.

1. Algebraik ko'rinishdagi kompleks sonning ta'rifini bering.
2. Algebraik ko'rinishda berilgan kompleks sonlar qanday qilib qo'shiladi, ayriladi, ko'paytiriladi va bo'linadi?
3. Kompleks sonning geometrik tasviri qanday topiladi?
4. Ayniyatni isbotlang: $|z_1 + z_2|^2 + |z_1 - z_2|^2 = 2(|z_1|^2 + |z_2|^2)$
5. Yuqoridagi ayniyat qanday geometrik talqinga ega?
6. Kompleks sonning moduli hamda argumenti deb nimaga aytiladi?
7. Kompleks sonni trigonometrik ko'rinishda yozing. Haqiqiy sonni qanday qilib trigonometrik ko'rinishda yozsa bo'ladi?
8. Muavr formulasini trigonometrik va ko'rsatkichli ko'rinishlarda yozing.
9. Kompleks sonning trigonometrik va ko'rsatkichli ko'rinishlari orasidagi bog'lanishni yozing.
10. Trigonometrik ko'rinishda berilgan kompleks sonlar ustida ko'paytirish, bo'lish, darajaga ko'tarish va ildiz chiqarish amallari qanday bajariladi?

11. Qo'shma kompleks son deb nimaga aytiladi? Quydagilarni isbotlang:

$$1) \overline{z_1 + z_2} = \overline{z_1} + \overline{z_2}$$

$$2) \overline{z_1 \cdot z_2} = \overline{z_1} \cdot \overline{z_2}$$

12. $\sin 4\alpha$ va $\cos 4\alpha$ larni Muavr formulasidan foydalanib α burchak funksiyalari orqali ifodalang.

Loyiha-hisob ishi topshiriqlari

1 – masala. Berilgan kompleks son z ga ko'ra quydagilarni toping:

- a) uning algebraik ko'rinishini;
- b) uning trigonometrik ko'rinishini;
- v) uning ko'rsatkichli ko'rinishini;
- g) uning geometrik tasvirini;
- d) $\sqrt[3]{z}$ ni.

$$1.1.1. \quad z = \frac{16}{\sqrt{3} + i}$$

$$1.1.2. \quad z = \frac{-2\sqrt{2}}{1+i}$$

$$1.1.30. \quad z = \frac{-54}{1+\sqrt{3}i}$$

$$1.1.3. \quad z = \frac{16}{1+\sqrt{3}i}$$

$$1.1.4. \quad z = \frac{-\sqrt{2}}{-1+i}$$

$$1.1.5. \quad z = \frac{16}{-\sqrt{3}+i}$$

$$1.1.6. \quad z = \frac{2\sqrt{2}}{1-i}$$

$$1.1.7. \quad z = \frac{54}{-1+\sqrt{3}i}$$

$$1.1.8. \quad z = \frac{16}{-1-\sqrt{3}i}$$

$$1.1.9. \quad z = \frac{16}{\sqrt{3}-i}$$

$$1.1.10. \quad z = \frac{2\sqrt{2}}{-1-i}$$

$$1.1.11. \quad z = \frac{-\sqrt{2}}{1-i}$$

$$1.1.12. \quad z = \frac{16}{-1+i}$$

$$1.1.13. \quad z = \frac{16}{-\sqrt{3}-i}$$

$$1.1.14. \quad z = \frac{-54}{1-\sqrt{3}i}$$

$$1.1.15. \quad z = \frac{4}{\sqrt{3}+i}$$

$$1.1.16. \quad z = \frac{\sqrt{2}}{1-i}$$

$$1.17. \quad z = \frac{2\sqrt{2}}{1+i}$$

$$1.1.18. \quad z = \frac{54}{1+\sqrt{3}i}$$

$$1.1.19. \quad z = \frac{54}{1-\sqrt{3}i}$$

$$1.1.20. \quad z = \frac{-16}{\sqrt{3}+i}$$

$$1.1.21. \quad z = \frac{2\sqrt{2}}{1-i}$$

$$1.1.22. \quad z = \frac{4}{-\sqrt{3}+i}$$

$$1.1.23. \quad z = \frac{\sqrt{2}}{1+i}$$

$$1.1.24. \quad z = \frac{4}{\sqrt{3}-i}$$

$$1.1.25. \quad z = \frac{-16}{\sqrt{3}-i}$$

$$1.1.26. \quad z = \frac{-54}{-1+\sqrt{3}i}$$

$$1.1.27. \quad z = \frac{-16}{-\sqrt{3}+i}$$

$$1.1.28. \quad z = \frac{16}{-1-\sqrt{3}i}$$

$$1.1.29. \quad z = \frac{2\sqrt{2}}{1+i}$$

2 – topshiriq

Mavzu: Aniqmas integral

Nazariy tushunchalar. Agar $(a; b)$ oraliqning ixtiyoriy nuqtasida

$$F'(x) = f(x)$$

tenglik o'rinli bo'lsa, u holda $F(x)$ funksiya $f(x)$ funksiyaning qaralayotgan oraliqdagi boshlang'ich funksiyasi deyiladi.

Agar $F(x)$ funksiya $f(x)$ funksiyaning boshlang'ich funksiyasi bo'lsa, u holda ixtiyoriy o'zgarmas son C uchun $F(x) + C$ ifoda qaralayotgan funksiyaning aniqmas integrali deyiladi va quyidagicha yoziladi:

$$\int f(x)dx = F(x) + C.$$

Bu yerda \int integral belgisi, $f(x)$ integral ostidagi funksiya, $f(x)dx$ integral ostidagi ifoda, x integrallash o'zgaruvchisi deb yuritiladi.

Sodda formulalar quyidagilardan iborat:

1. $\int dx = x + C;$

7. $\int \cos x = \sin x + C;$

2. $\int x^\alpha dx = \frac{x^{\alpha+1}}{\alpha+1} + C, (\alpha \neq -1);$

8. $\int \frac{dx}{\cos^2 x} = \operatorname{tg}x + C;$

3. $\int \frac{dx}{x} = \ln|x| + C;$

9. $\int \frac{dx}{\sin^2 x} = -\operatorname{ctg}x + C;$

4. $\int e^x dx = e^x + C;$

10. $\int \frac{dx}{\sqrt{1-x^2}} = \arcsin x + C;$

5. $\int a^x dx = \frac{a^x}{\ln a} + C;$

11. $\int \frac{dx}{1+x^2} = \operatorname{arctg}x + C.$

6. $\int \sin x = -\cos x + C;$

Integrallash qoidalari quyidagilardan iborat:

$$\int C \cdot u(x)dx = C \cdot \int u(x)dx,$$

$$\int (u(x) \pm v(x))dx = \int u(x)dx \pm \int v(x)dx.$$

Agar $\int f(x)dx = F(x) + C$ ma'lum bo'lsa, u holda

$$\int f(ax+b)dx = \frac{1}{a} F(ax+b) + C$$

o'rinli bo'ladi.

O'zgaruvchini almashtirib integrallash usuli. Ko'pincha $\int f(x)dx$ integralni bevosita integrallab bo'lmaydi. Bunday hollarda $x = \varphi(t)$ almashtirish yordamida uni $\int f(\varphi(t))\varphi'(t)dt$ ko'rinishda yozib, so'ngra integrallash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ushbu

$$\int u dv = u \cdot v - \int v du$$

ifodaga aniqmas integralni bo'laklab integrallash formulasi deyiladi.

Ushbu

I. $\frac{A}{x-a},$

II. $\frac{A}{(x-a)^k} \quad (k \geq 2),$

III. $\frac{Ax+B}{x^2+px+q} \quad (D < 0),$

IV. $\frac{Ax+B}{(x^2+px+q)^k} \quad (D < 0, k \geq 2)$

ko'rinishdagi funksiyalar eng sodda ratsional kasrlar deyiladi. Ular to'g'ridan-to'g'ri yoki maxrajdagi kvadrat uchhaddan to'la kvadrat ajratish bilan yoki rekkurent formulalardan foydalanib, integrallanadi.

Ushbu $\frac{P_m(x)}{Q_n(x)} \quad (m < n)$ ko'rinishdagi to'g'ri ratsional kasrni integrallash

uchun uning maxrajidagi ko'phadni ko'paytuvchilarga ajratib, so'ngra kasrni sodda ratsional kasrlarga yoyib, hosil bo'lgan koeffitsiyentlarni no'malum koeffitsiyentlar usuli bilan topib, hosil qilingan eng sodda ratsional kasrlarni integrallash kifoya.

Ba'zi trigonometrik funksiyalar qatnashgan ifodalarni va irratsional funksiyalarni integrallashning bir necha hollari mavjud bo'lib, ularga misollar yechishda to'xtalib o'tamiz.

Mavzuga doir misollarni yechishga namunalari

1-misol. $F(x) = \arcsin x$ funksiya $f(x) = \frac{1}{\sqrt{1-x^2}}$ funksiyaning $(-1;1)$

oralisdagi boshlang'ich funksiyasi bo'ladi, chunki

$$F'(x) = (\arcsin x)' = \frac{1}{\sqrt{1-x^2}}, \quad \forall x \in (-1;1)$$

2-misol. $F(x) = \frac{a^x}{\ln a}$, $a \in (0;1) \cup (1;\infty)$ funksiya $f(x) = a^x$ funksiyaning

oralisdagi boshlang'ich funksiyasi bo'ladi, chunki

$$F'(x) = \left(\frac{a^x}{\ln a} \right)' = \frac{a^x \ln a}{\ln a} = a^x, \quad \forall x \in (-\infty;\infty)$$

3-misol. $\int (2x^3 - 5x^2 + 7x - 3) dx$ hisoblansin.

Yechish. Bu integral, integral xossalaridan foydalanib quyidagicha integrallanadi:

$$\int (2x^3 - 5x^2 + 7x - 3) dx = 2 \int x^3 dx - 5 \int x^2 dx + 7 \int x dx - 3 \int dx$$

Dastlabki 3ta integral, integrallash jadvalidagi $\int x^n dx = \frac{x^{n+1}}{n+1} + C$ va so'ngi

integral $\int dx = x + C$ formulalar bilan hisoblanadi.

$$\int (2x^3 - 5x^2 + 7x - 3) dx = 2 \cdot \frac{x^4}{4} - 5 \cdot \frac{x^3}{3} + 7 \cdot \frac{x^2}{2} - 3x + C = \frac{x^4}{2} - \frac{5x^3}{3} + \frac{7x^2}{2} - 3x + C.$$

4-misol. $\int \frac{\sqrt{x} + \sqrt[3]{x^2} + 1}{x^3} dx$ hisoblansin.

Yechish. Bu integral quyidagicha hisoblanadi:

$$\int \frac{\sqrt{x} + \sqrt[3]{x^2} + 1}{x^3} dx = \int \left(\frac{\sqrt{x}}{x^3} + \frac{\sqrt[3]{x^2}}{x^3} + \frac{1}{x^3} \right) dx = \int \left(x^{-\frac{5}{2}} + x^{-\frac{7}{3}} + x^{-3} \right) dx =$$

$$= \int x^{-\frac{5}{2}} dx + \int x^{-\frac{7}{3}} dx + \int x^{-3} dx = \frac{x^{-\frac{5}{2}+1}}{-\frac{5}{2}+1} + \frac{x^{-\frac{7}{3}+1}}{-\frac{7}{3}+1} + \frac{x^{-3+1}}{-3+1} + C =$$

$$= -\frac{2}{3\sqrt{x^3}} - \frac{3}{4\sqrt[3]{x^4}} - \frac{1}{2x^2} + C.$$

5-misol. $\int \left(\sqrt{x^3} - \frac{1}{\sqrt{x^3}} \right)^2 dx$ aniqmas integralni toping.

Yechish. Bu integral quyidagicha hisoblanadi:

$$\int \left(\sqrt{x^3} - \frac{1}{\sqrt{x^3}} \right)^2 dx = \int \left(x^3 - 2 + \frac{1}{x^3} \right) dx = \int x^3 dx - 2 \int dx + \int \frac{dx}{x^3} = \frac{x^4}{4} - 2x - \frac{1}{2x^2} + C.$$

6-misol. $\int \frac{(1+x^2)}{x^3+x} dx$ integralni hisoblang.

Yechish. Bu integral quyidagicha hisoblanadi:

$$\int \frac{(1+x)^2}{x^3+x} dx = \int \frac{1+2x+x^2}{x(1+x^2)} dx = \int \frac{(1+x^2)+2x}{x(1+x^2)} dx = \int \left(\frac{1}{x} + \frac{2}{1+x^2} \right) dx =$$

$$= \int \frac{dx}{x} + 2 \int \frac{dx}{1+x^2} = \ln|x| + 2 \arctg x + C$$

Nazariy savollar va mashqlar.

1. Boshlang'ich funksiya deb nimaga aytiladi? Funktsiyaning ixtiyoriy ikkita boshlang'ich funktsiyalari bir-biridan o'zgarmas songa farq qilinishini isbotlang.
2. Aniqmas integral deb nimaga aytiladi? Aniqmas integral qanday hossalarga ega?
3. $y = \int x dx$ chiziqlar oilasidan $A(2;1)$, $B(2;2)$, $C(2;3)$ nuqtalardan o'tuvchilarini yasang.

4. Quydagi integrallarni hisoblash uchun qulay belgilashni ko'rsating:

$$\int \frac{\sqrt{1+\ln x}}{x} dx, \quad \int e^{\cos^2 x} \cdot \sin 2x dx, \quad \int \frac{e^{\arctg x}}{1+x^2} dx,$$

$$\int x^3 \sqrt{1+4x^6} dx, \quad \int \cos x \cdot \cos(\sin x) dx, \quad \int \frac{dx}{x\sqrt{x^2+1}}.$$

5. Bo'laklab integrallash formulasini keltirib chiqaring.

6. Quydagi integrallarni hisoblash uchun qulay belgilashni ko'rsating:

$$\int x \arctg x dx, \quad \int \frac{dx}{x \ln x}, \quad \int \frac{x^3}{\sqrt{4-x^2}} dx,$$

$$\int \frac{\arcsin x}{x^2} dx, \quad \int \sqrt[7]{\sin^3 x} \cdot \cos^3 x dx, \quad \int \cos x \cdot \ln(\sin x) dx, \quad \int x^2 e^x dx.$$

7. Ratsional kasrlarni integrallash usullari nimadan iborat?

8. Hisoblang va tushuntiring:

$$\int \arcsin x dx + \int \arccos x dx.$$

9. Ushbu $\int R(\sin x, \cos x) dx$ ko'rinishdagi integrallarni hisoblash usulini bayon qiling. Bu erda R – ratsional operator.

10. Ushbu

$$\text{a) } \int R(x, \sqrt{a^2 - x^2}) dx \quad \text{b) } \int R(x, \sqrt{a^2 + x^2}) dx \quad \text{v) } \int R(x, \sqrt{x^2 - a^2}) dx$$

ko'rinishdagi integrallarda qanday almashtirishlar bajarilsa maqsadga muvofiq bo'ladi?

Loyiha-hisob ishi topshiriqlari

1 – masala. Aniqmas integrallarni toping va differensiallash yordamida tekshirib ko'ring.

$$2.1.1. \quad \text{a) } \int \frac{\cos 5x}{\sqrt[3]{\sin^2 5x}} dx; \quad \text{b) } \int (3x+4)e^{3x} dx; \quad \text{v) } \int \frac{x+5}{2x^2+2x+3} dx.$$

$$2.1.2. \quad \text{a) } \int e^{\cos 3x} \sin 3x dx; \quad \text{b) } \int \arctg \sqrt{4x-1} dx; \quad \text{v) } \int \frac{x-7}{x^2+4x+13} dx.$$

$$2.1.3. \quad \text{a) } \int \frac{\sin 7x}{3-5\cos 7x} dx; \quad \text{b) } \int (4-3x)e^{-3x} dx; \quad \text{v) } \int \frac{2x-3}{\sqrt{x^2-4x-7}} dx.$$

2. 1. 4. a) $\int \frac{dx}{\cos^2 x(2\operatorname{tg}x+1)}$;	b) $\int \ln(x^2+4)dx$;	v) $\int \frac{x-2}{\sqrt{x^2+4x-3}} dx$.
2. 1. 5. a) $\int \frac{x+\operatorname{arctg}x}{1+x^2} dx$;	b) $\int (1-6x)e^{2x} dx$;	v) $\int \frac{x-3}{\sqrt{3-2x-x^2}} dx$.
2. 1. 6. a) $\int \sqrt{1+e^{5x}} e^{5x} dx$;	b) $\int (4-16x)\sin 4x dx$;	v) $\int \frac{x+1}{4x^2-12x+13} dx$.
2. 1. 7. a) $\int \frac{(\arccos x)^3-1}{\sqrt{1-x^2}} dx$;	b) $\int \sqrt{x} \ln x dx$;	v) $\int \frac{x+2}{\sqrt{3-x^2+2x}} dx$.
2. 1. 8. a) $\int \operatorname{tg}x \ln \cos x dx$;	b) $\int (4x-3)e^{-2x} dx$;	v) $\int \frac{x}{\sqrt{8-2x-x^2}} dx$.
2. 1. 9. a) $\int \frac{\sin x - \cos x}{(\cos x + \sin x)^5} dx$;	b) $\int \operatorname{arctg} \frac{1}{x} dx$;	v) $\int \frac{3x-2}{5x^2-3x+2} dx$.
2. 1. 10. a) $\int \frac{\operatorname{tg}(x+1)}{\cos^2(x+1)} dx$;	b) $\int (4x-2)\cos 2x dx$;	v) $\int \frac{2-x}{\sqrt{1-2x-x^2}} dx$.
2. 1. 11. a) $\int \frac{1-\cos x}{(x-\sin x)^2} dx$;	b) $\int \ln(4x^2+1)dx$;	v) $\int \frac{6-8x}{2x^2-3x+1} dx$.
2. 1. 12. a) $\int \frac{1-\ln(x-1)}{x-1} dx$;	b) $\int x \cos 5x dx$;	v) $\int \frac{2-5x}{\sqrt{4x^2+9x+1}} dx$.
2. 1. 13. a) $\int \frac{8x-\operatorname{arctg} 2x}{1+4x^2} dx$;	b) $\int (5x-2)e^{3x} dx$;	v) $\int \frac{3x-6}{x^2-7x+12} dx$.
2. 1. 14. a) $\int \frac{x+\cos x}{x^2+2\sin x} dx$;	b) $\int \frac{\arcsin x}{\sqrt{1+x}} dx$;	v) $\int \frac{5x-15}{\sqrt{3-2x-x^2}} dx$.
2. 1. 15. a) $\int \frac{dx}{x\sqrt{4-\ln^2 x}}$;	b) $\int \frac{x \cos x}{\sin^3 x} dx$;	v) $\int \frac{3x-2}{x^2+2x+5} dx$.
2. 1. 16. a) $\int \frac{\sin 4x}{\sqrt[3]{\cos^2 4x}} dx$;	b) $\int \frac{\ln x}{x^2} dx$;	v) $\int \frac{x}{\sqrt{x^2-3x+2}} dx$.
2. 1. 17. a) $\int \frac{x-(\operatorname{arctg}x)^4}{1+x^2} dx$;	b) $\int (2-3x)e^{-3x} dx$;	v) $\int \frac{x+1}{4x^2-4x-11} dx$.
2. 1. 18. a) $\int \frac{\sqrt{1+\ln x}}{x} dx$;	b) $\int \operatorname{arctg} \sqrt{6x-1} dx$;	v) $\int \frac{4x-7}{\sqrt{5+2x-x^2}} dx$.
2. 1. 19. a) $\int \frac{3+x}{\sqrt{2-x^2}} dx$;	b) $\int (x+5)\sin 3x dx$;	v) $\int \frac{3-4x}{4x^2-6x+2} dx$.

2. 1. 20. a) $\int \frac{(\arcsin x)^2 + 1}{\sqrt{1-x^2}} dx$; b) $\int (x+2)\ln x dx$; v) $\int \frac{x}{\sqrt{5-2x+x^2}} dx$.

2. 1. 21. a) $\int \frac{x + \frac{1}{x}}{\sqrt{x^2+1}} dx$; b) $\int (x+1)e^{5x} dx$; v) $\int \frac{3x-1}{9x^2+6x+5} dx$.

2. 1. 22. a) $\int \frac{x^2+1}{(x^3+3x+1)^5} dx$; b) $\int \arctg \sqrt{3x-1} dx$; v) $\int \frac{1-x}{\sqrt{5+4x-x^2}} dx$.

2. 1. 23. a) $\int (1+e^{2x})^5 e^{2x} dx$; b) $\int (x+1)\cos 3x dx$; v) $\int \frac{5x+2}{x^2-4x+8} dx$.

2. 1. 24. a) $\int \frac{\cos 3x}{3-5\sin 3x} dx$; b) $\int (x-1)\ln x dx$; v) $\int \frac{x}{\sqrt{x^2+4x+5}} dx$.

2. 1. 25. a) $\int \frac{x^2 + \ln x^2}{x} dx$; b) $\int (2x+3)e^{-x} dx$; v) $\int \frac{x+1}{\sqrt{12x-9x^2-3}} dx$.

2. 1. 26. a) $\int \frac{x}{\sqrt{x^4+x^2+1}} dx$; b) $\int \frac{x}{\cos^2 x} dx$; v) $\int \frac{2x+3}{9x^2-6x+5} dx$.

2. 1. 27. a) $\int \frac{2\cos x + 3\sin x}{(2\sin x - 3\cos x)^3} dx$; b) $\int \arctg \sqrt{2x-1} dx$; v) $\int \frac{x}{9x^2-6x-8} dx$.

2. 1. 28. a) $\int \frac{4\arctg 3x-x}{1+9x^2} dx$; b) $\int (2-x)\sin 2x dx$; v) $\int \frac{x+1}{\sqrt{24-x^2-2x}} dx$.

2. 1. 29. a) $\int e^{\sin 2x} \cos 2x dx$; b) $\int \frac{\ln x}{x^3} dx$; v) $\int \frac{x}{25x^2-10x+17} dx$.

2. 1. 30. a) $\int \frac{dx}{\sin^2 x(3\ctg x+2)}$; b) $\int \frac{x}{\sin^2 x} dx$; v) $\int \frac{x-2}{\sqrt{x^2+3x-1}} dx$.

2 – masala. Aniqmas integralni toping.

2. 2. 1. a) $\int \frac{x+2}{x^3-2x^2+2x} dx$; b) $\int \frac{1+\sqrt[3]{x-1}}{\sqrt{x-1}} dx$; v) $\int \frac{dx}{5+3\cos x}$.

2. 2. 2. a) $\int \frac{x^5+x^4-8}{x^3-4x} dx$; b) $\int \frac{dx}{\sqrt{x-2}(1+\sqrt[3]{x-2})}$; v) $\int \sin^3 x \cos^2 x dx$.

2. 2. 3. a) $\int \frac{x+3}{x^3+x^2-2x} dx$; b) $\int \frac{\sqrt[4]{x+1}}{(\sqrt{x+4})\sqrt[4]{x^3}} dx$; v) $\int \cos^3 x \sin^4 x dx$.

2. 2. 4. a) $\int \frac{x+5}{x^4+2x^3+x^2} dx$; b) $\int \frac{dx}{4\sqrt{x}+\sqrt{x^3}}$; v) $\int \tg^4 3x dx$.

2. 2. 5. a) $\int \frac{3x^2 + 2x + 1}{(x+1)^2(x^2+1)} dx$; b) $\int \frac{dx}{\sqrt{x+3} + \sqrt[3]{x+3}}$; v) $\int \operatorname{ctg}^4 5x dx$.

2. 2. 6. a) $\int \frac{2x^3 - 6x^2 + 8x - 1}{(x-1)^2(x^2+2)} dx$; b) $\int \frac{x+1}{\sqrt[3]{2x+1}} dx$; v) $\int \frac{\cos x}{1 + \cos x} dx$.

2. 2. 7. a) $\int \frac{x^4}{x^4 + 5x^2 + 4} dx$; b) $\int \frac{dx}{\sqrt{x}(\sqrt[3]{x+1})}$; v) $\int \sin^5 x \cos^2 x dx$.

2. 2. 8. a) $\int \frac{x^2 + 1}{x^3 - x^2 + 4x - 4} dx$; b) $\int \frac{dx}{\sqrt[4]{x} + \sqrt{x}}$; v) $\int \cos^2 3x \sin^2 3x dx$.

2. 2. 9. a) $\int \frac{x+1}{x^3 - 2x^2 + 3x - 6} dx$; b) $\int \frac{dx}{\sqrt[4]{x} + \sqrt{x}}$; v) $\int \frac{dx}{(1 + \cos x)^2}$.

2. 2. 10. a) $\int \frac{x^3 + 1}{x^4 + 3x^2 + 2} dx$; b) $\int \frac{dx}{\sqrt{x+1}(1 + \sqrt[3]{x+1})}$; v) $\int \frac{dx}{\sin x + \cos x}$.

2. 2. 11. a) $\int \frac{2x^4 + 1}{x^3 + x^2 + 2x + 2} dx$; b) $\int \frac{dx}{1 + \sqrt{3x+1}}$; v) $\int \frac{dx}{5 + 4 \sin x}$.

2. 2. 12. a) $\int \frac{x^3 - 6}{x^4 - 6x^2 + 8} dx$; b) $\int \frac{dx}{\sqrt{x+2} + \sqrt[3]{x+2}}$; v) $\int \cos^3 x \sin^2 x dx$.

2. 2. 13. a) $\int \frac{dx}{x^3 + 8}$; b) $\int \frac{1 + \sqrt[3]{x+1}}{\sqrt{x+1}} dx$; v) $\int \frac{2 - \sin x}{2 + \cos x} dx$.

2. 2. 14. a) $\int \frac{x^2 + 2x + 4}{x^4 - 5x^2 + 4} dx$; b) $\int \frac{dx}{\sqrt{x-1}(1 + \sqrt[3]{x-1})}$; v) $\int \operatorname{tg}^5 3x dx$.

2. 2. 15. a) $\int \frac{x^2 - x + 1}{x^4 + 2x^2 - 3} dx$; b) $\int \frac{x}{1 + \sqrt{3x+1}} dx$; v) $\int \operatorname{ctg}^6 2x dx$.

2. 2. 16. a) $\int \frac{x^3 - 2x + 5}{x^4 - 1} dx$; b) $\int \frac{e^{2x}}{\sqrt[3]{e^x + 1}} dx$; v) $\int \frac{dx}{3 - 6 \sin x}$.

2. 2. 17. a) $\int \frac{x^6 + 2x^5 - 1}{x^3 + 2x^2 + 2x} dx$; b) $\int \frac{dx}{\sqrt[4]{x+1} + \sqrt{x+1}}$; v) $\int \sin^3 x \cos^3 x dx$.

2. 2. 18. a) $\int \frac{x^2}{x^4 - 81} dx$; b) $\int \frac{dx}{1 + \sqrt[3]{2x+1}}$; v) $\int \operatorname{ctg}^5 3x dx$.

2. 2. 19. a) $\int \frac{2x^2 - 3x + 1}{x^3 + 1} dx$; b) $\int \frac{4x + 5}{(x+2)^3} dx$; v) $\int \frac{dx}{5 - 4 \cos x}$.

2. 2. 20. a) $\int \frac{x^3 - x - 8}{x^4 - 4x^2} dx$; b) $\int \frac{e^{2x}}{\sqrt[4]{e^x + 1}} dx$; v) $\int \sin^4 x \cos^3 x dx$.

2. 2. 21. a) $\int \frac{3x-7}{x^3+4x^2+4x+16} dx$; b) $\int \frac{dx}{\sqrt[3]{(x+1)^2} - \sqrt[3]{x+1}}$; v) $\int \operatorname{tg}^6 2x dx$.

2. 2. 22. a) $\int \frac{x^5-x^3+4}{x^3+2x^2+3x+6} dx$; b) $\int \frac{3x+2}{x\sqrt{x-2}} dx$; v) $\int \sin^3 x \cos^4 x dx$.

2. 2. 23. a) $\int \frac{dx}{x^3+x^2+2x+2}$; b) $\int \frac{dx}{\sqrt{3x+5}+2}$; v) $\int \frac{dx}{2\sin x - \cos x}$.

2. 2. 24. a) $\int \frac{x^2}{x^4-16} dx$; b) $\int \frac{\sqrt{x}}{\sqrt[3]{x^2} - \sqrt{x}} dx$; v) $\int \frac{dx}{2\cos x + \sin x}$.

2. 2. 25. a) $\int \frac{2x^3-4x^2+16x-12}{(x-1)^2(x^2+4x+5)} dx$; b) $\int \frac{x^3}{\sqrt{x-2}} dx$; v) $\int \operatorname{tg}^7 3x dx$.

2. 2. 26. a) $\int \frac{x^3-6x^2+13x-6}{(x^2-4)(x-2)^2} dx$; b) $\int \frac{dx}{\sqrt{x+1} + \sqrt[5]{(x+1)^2}}$; v) $\int \cos^5 x \sin^2 x dx$.

2. 2. 27. a) $\int \frac{dx}{x^3+x^2+4x+4}$; b) $\int \frac{4x+2}{(x-3)^2} dx$; v) $\int \frac{dx}{\sin^3 2x}$.

2. 2. 28. a) $\int \frac{x^3+x+2}{(x+2)x^3} dx$; b) $\int \frac{\sqrt{x+1}}{x(x+2)} dx$; v) $\int \frac{dx}{3+\cos x+2\sin x}$.

2. 2. 29. a) $\int \frac{-3x^3+13x^2+13x+1}{(x-2)^2(x^2-x+1)} dx$; b) $\int \frac{dx}{\sqrt[3]{x+1}(\sqrt[3]{x+1}-1)}$; v) $\int \frac{dx}{2+\operatorname{tg} x}$.

2. 2. 30. a) $\int \frac{x^2}{x^3+5x^2+8x+4} dx$; b) $\int \frac{\sqrt{x+1}}{\sqrt[3]{(x+1)^2} + \sqrt{x+1}} dx$; v) $\int \frac{dx}{\cos^3 2x}$.

3 – topshiriq

Mavzu: Aniq integral

Nazariy tushunchalar. Agar $[a; b]$ kesmada aniqlangan $f(x)$ funksiya uchun ushbu $\lim_{\max \Delta x_i \rightarrow 0} \sum_{i=1}^n f(\xi_i) \cdot \Delta x_i = I$ ($\xi_i \in (x_i; x_{i+1})$ $\sum_{i=1}^n \Delta x_i = b - a$) chekli limit mavjud bo'lsa, u holda I soniga qaralayotgan funksiyaning qaralayotgan kesmadagi aniq integrali deyiladi va quyidagicha yoziladi:

$$I = \int_a^b f(x) dx,$$

bu yerda:

a – integralning quyi chegarasi;

b – integralning yuqori chegarasi.

Aniq integral quyidagi xossalarga ega:

1°. Aniq integral integrallash o'zgaruvchisiga bog'liq emas:

$$\int_a^b f(x)dx = \int_a^b f(y)dy = \int_a^b f(t)dt = \dots = \int_a^b f(z)dz.$$

2°. Agar intergallash chegaralarini almashtirsak, u holda integralning qiymati qarama-qarshisiga o'zgaradi.

$$\int_a^b f(x)dx = -\int_b^a f(x)dx.$$

3°. Agar integrallash chegaralari ustma-ust tushib qolsa, u holda integralning qiymati nolga teng bo'ladi.

$$\int_a^a f(x)dx = 0.$$

4°. O'zgarmas sonni aniq integral ishorasidan tashqariga chiqarish mumkin.

$$\int_a^b C \cdot f(x)dx = C \cdot \int_a^b f(x)dx, \quad C = const.$$

5°. Yig'indining aniq integrali qo'shiluvchilarning aniq integrallari yig'indisiga tengdir.

$$\int_a^b (f(x) \pm \varphi(x))dx = \int_a^b f(x)dx \pm \int_a^b \varphi(x)dx.$$

6°. Agar $[a;b]$ kesmada $f(x) \leq \varphi(x)$ shart bajarilsa, u holda

$$\int_a^b f(x)dx \leq \int_a^b \varphi(x)dx$$

o'rinli.

7°. Agar m va M sonlar $f(x)$ funksiyaning $[a;b]$ kesmadagi eng kichik va eng katta qiymatlari bo'lsa, u holda

$$m(b-a) \leq \int_a^b f(x)dx \leq M(b-a)$$

o'rinli.

8°. Agar $f(x)$ funksiya $[a;b]$ kesmada uzluksiz bo'lsa, u holda $(a;b)$ oraliqda shunday $x=c$ nuqta topiladiki, ushbu

$$\int_a^b f(x)dx = f(c) \cdot (b-a)$$

o'rinli bo'ladi.

9°. Uchta ixtiyoriy a, b, c sonlar uchun ushbu

$$\int_a^b f(x)dx = \int_a^c f(x)dx + \int_c^b f(x)dx$$

tenglik o'rinli.

Nyuton-Leybnits formulasi. Agar $F(x)$ funksiya biror uzluksiz $f(x)$ funksiyaning biror boshlang'ich funksiyasi bo'lsa, u holda

$$\int_a^b f(x)dx = F(b) - F(a)$$

formula o'rinlidir.

Aniq integralda o'zgaruvchini almashtirish usuli bilan hisoblash huddi aniqmas integralda o'zgaruvchini almashtirish usuli kabi bo'ladi, faqat o'zgaruvchini almashtirib, boshlang'ich funksiya topilgandan so'ng eski o'zgaruvchiga qaytmasdan, ya'ni integrallash chegaralari yordamida to'g'ridan-to'g'ri hisoblashlar bajarilaveradi.

Agar $u = u(x)$ va $v = v(x)$ differensiallanuvchi funksiyalar bo'lsa, u holda

$$\int_a^b u dv = (u \cdot v)|_a^b - \int_a^b v du$$

ifodaga aniq integralni bo'laklab integrallash formulasi deyiladi.

Ushbu $\int_a^\infty f(x)dx$, $\int_{-\infty}^b f(x)dx$, $\int_{-\infty}^\infty f(x)dx$ ko'rinishdagi integrallarni, cheksiz

oraliqdagi xosmas integrallar deyiladi. Ular quyidagicha aniqlanadi:

$$\int_a^{\infty} f(x)dx = \lim_{b \rightarrow \infty} \int_a^b f(x)dx,$$

$$\int_{-\infty}^b f(x)dx = \lim_{a \rightarrow -\infty} \int_a^b f(x)dx,$$

$$\int_{-\infty}^{\infty} f(x)dx = \lim_{a \rightarrow \infty} \int_{-a}^a f(x)dx.$$

Agar mos chekli limitlar mavjud bo'lsa, u holda mos xosmas integrallar yaqinlashuvchi deyiladi.

Agar $f(x)$ funksiya $[a;b)$ oraliqda aniqlangan va uzluksiz bo'lib, $x=b$ nuqtada aniqlanmagan yoki uzulishga ega bo'lsa, u holda quyidagi integralni

$$\int_a^b f(x)dx$$

chekli oraliqdagi xosmas integral deyiladi va u quyidagicha aniqlanadi:

$$\int_a^b f(x)dx = \lim_{\varepsilon \rightarrow 0} \int_a^{b-\varepsilon} f(x)dx.$$

Agar chekli limit mavjud bo'lsa, u holda xosmas integral yaqinlashuvchi deyiladi.

Mavzuga doir misollarni yechishga namunalar

1-misol. Quyida keltirilgan aniq integrallar Nyuton-Leybnits formulasi yordamida bevosita hisoblangan:

$$1) \int_0^1 \sqrt[3]{x^2} dx = \int_0^1 x^{\frac{2}{3}} dx = \frac{x^{\frac{5}{3}}}{\frac{5}{3}} \Big|_0^1 = \frac{3}{5}(1-0) = \frac{3}{5},$$

$$2) \int_{\ln 2}^{\ln 3} e^{2x} dx = \frac{1}{2} e^{2x} \Big|_{\ln 2}^{\ln 3} = \frac{1}{2} (e^{2\ln 3} - e^{2\ln 2}) = \frac{1}{2} (9 - 4) = 2,5,$$

$$3) \int_0^{\frac{\pi}{2}} \sin x dx = -\cos x \Big|_0^{\frac{\pi}{2}} = -\left(\cos \frac{\pi}{2} - \cos 0 \right) = 1.$$

2-misol. $\int_0^1 \sqrt{1-x^2} dx$ integralni hisoblang.

Yechish. Bu integralni hisoblash uchun o'zgaruvchini almashtirish usulidan foydalanamiz.

$$\int_0^1 \sqrt{1-x^2} dx \Rightarrow \left. \begin{array}{l} x = \sin t \\ dx = \cos t dt \\ x=0, t=0 \\ x=1, t=\frac{\pi}{2} \end{array} \right\} \Rightarrow \int_0^{\frac{\pi}{2}} \sqrt{1-\sin^2 t} \cos t dt = \int_0^{\frac{\pi}{2}} \cos^2 t dt = \frac{1}{2} \int_0^{\frac{\pi}{2}} (1 + \cos 2t) dt =$$

$$= \frac{1}{2} \left(t + \frac{1}{2} \sin 2t \right) \Big|_0^{\frac{\pi}{2}} = \frac{\pi}{4}.$$

3-misol. $\int_1^{\sqrt{3}} \operatorname{arctg} x dx$ integralni hisoblang.

Hisoblash. Bu integralni hisoblash uchun bo'laklab integrallash usulidan foydalanamiz.

$$\int_1^{\sqrt{3}} \operatorname{arctg} x dx \Rightarrow \left. \begin{array}{l} u = \operatorname{arctg} x, \quad du = \frac{dx}{1+x^2} \\ dv = dx, \quad v = x. \end{array} \right\} \Rightarrow (x \cdot \operatorname{arctg} x) \Big|_1^{\sqrt{3}} - \int_1^{\sqrt{3}} x \cdot \frac{dx}{1+x^2} = (x \cdot \operatorname{arctg} x) \Big|_1^{\sqrt{3}} -$$

$$- \frac{1}{2} \int_1^{\sqrt{3}} \frac{d(1+x^2)}{1+x^2} = (x \cdot \operatorname{arctg} x) \Big|_1^{\sqrt{3}} - \frac{1}{2} \ln |1+x^2| \Big|_1^{\sqrt{3}} = \sqrt{3} \operatorname{arctg} \sqrt{3} - \operatorname{arctg} 1 - \frac{1}{2} \ln 4 + \frac{1}{2} \ln 2 =$$

$$= \frac{\sqrt{3}\pi}{3} - \frac{\pi}{4} - \frac{1}{2} \ln 2.$$

4-misol. $\int_0^2 \frac{dx}{(x-1)^2}$ integralni hisoblang.

Hisoblash. Agar integral ostidagi funksiyani $x=1$ nuqtada uzilishga ega ekanligi e'tiborga olmasdan, to'g'ridan-to'g'ri hisoblashga o'tilsa, quyidagi hosil bo'ladi:

$$\int_0^2 \frac{dx}{(x-1)^2} = -\frac{1}{x-1} \Big|_0^2 = -1 - 1 = -2.$$

Ammo, bu mumkin emas, chunki integralning chekli oraliqdagi xosmas integralligini e'tiborga olinsa, quyidagiga ega bo'lamiz:

$$\int_0^2 \frac{dx}{(x-1)^2} = \lim_{\varepsilon \rightarrow 0} \int_0^{1-\varepsilon} \frac{dx}{(x-1)^2} + \lim_{\varepsilon \rightarrow 0} \int_{1+\varepsilon}^2 \frac{dx}{(x-1)^2} = \lim_{\varepsilon \rightarrow 0} \frac{1}{1-x} \Big|_0^{1-\varepsilon} + \lim_{\varepsilon \rightarrow 0} \frac{1}{1-x} \Big|_{1+\varepsilon}^2 =$$

$$= \lim_{\varepsilon \rightarrow 0} \left(\frac{1}{\varepsilon} - 1 \right) + \lim_{\varepsilon \rightarrow 0} \left(-1 + \frac{1}{\varepsilon} \right) = \infty.$$

Bundan ko'rinadiki, qaralayotgan integral $[0;2]$ kesmada uzoqlashuvchi.

Nazariy savollar va mashqlar.

1. Aniq integralga ta'rif bering. Aniq integral qanday geometrik va mehanik ma'nolarga ega?
2. Agar $\int_a^b f(x)dx = 0$, $f(x) \neq 0$ bo'lsa, uni qanday izohlash mumkin?
3. Aniq integralning hossalari bayon qiling va isbotlang.
4. $\int_{-a}^a \Phi(x^2)dx = 2 \int_0^a \Phi(x^2)dx$ ekanligini isbotlang.
5. Nyuton-Leybnis formulasini keltirib chiqaring.
6. Agar $f(x)$ funksiya toq bo'lsa, u holda $\int_{-a}^0 f(x)dx = - \int_0^a f(x)dx$ va $\int_{-a}^a f(x)dx = 0$ ekanligini isbotlang.
7. $\int_{-1}^1 \sin^2 x \ln \left(\frac{2+x}{2-x} \right) dx$ ni hisoblang.
8. Aniq integral uchun bo'laklab integrallash formulasini keltirib chiqaring. Hosmas integral deb nimaga aytiladi?
9. Aniq integralda qachon va qanday qilib o'zgaruvchini almashtirsa bo'ladi? Misollar keltiring.

Loyiha-hisob ishi topshiriqlari

1 – masala. Aniq integralni hisoblang.

3. 1. 1. a) $\int_{\pi}^{2\pi} \frac{x + \cos x}{x^2 + 2 \sin x} dx$; b) $\int_1^{e^2} \frac{\ln^2 x}{\sqrt{x}} dx$; v) $\int_0^5 \frac{dx}{(25 + x^2)\sqrt{25 + x^2}}$.

3. 1. 2. a) $\int_{e+1}^{e^2+1} \frac{1+\ln(x-1)}{x-1} dx$; b) $\int_{\pi/4}^3 (3x-x^2)\sin 2x dx$; v) $\int_0^{\pi/2} \frac{\cos x}{2+\cos x} dx$.

3. 1. 3. a) $\int_0^1 \frac{4\arctan x - x}{1+x^2} dx$; b) $\int_1^e \sqrt{x} \ln^2 x dx$; v) $\int_0^{2\sqrt{2}} \frac{x^4}{(16-x^2)\sqrt{16-x^2}} dx$.

3. 1. 4. a) $\int_0^1 \frac{x^2+1}{(x^3+3x+1)^2} dx$; b) $\int_{-2}^0 (x^2+2)e^{\frac{x}{2}} dx$; v) $\int_0^{\pi/2} \frac{\cos x - \sin x}{(1-\cos x)^2} dx$.

3. 1. 5. a) $\int_0^{\pi/4} \frac{2\cos x + 3\sin x}{(2\sin x - 3\cos x)^3} dx$; b) $\int_0^{2\pi} (1-8x^2)\cos 4x dx$; v) $\int_0^5 x^2\sqrt{25-x^2} dx$.

3. 1. 6. a) $\int_0^{1/2} \frac{8x - \arctan 2x}{1+4x^2} dx$; b) $\int_0^1 (x^2+1)e^{3x} dx$; v) $\int_0^{\pi/2} \frac{\cos x}{5+4\cos x} dx$.

3. 1. 7. a) $\int_0^2 \frac{x^3}{x^2+4} dx$; b) $\int_{-3}^0 (x^2+6x+9)\sin 2x dx$; v) $\int_0^{1/\sqrt{2}} \frac{dx}{(1-x^2)\sqrt{1-x^2}}$.

3. 1. 8. a) $\int \frac{\sqrt{8}x + \frac{1}{\sqrt{3}}}{\sqrt{x^2+1}} dx$; b) $\int_0^1 (x+1)\ln^2(x+1) dx$; v) $\int_0^{\pi/2} \frac{\sin x}{(1+\sin x)^2} dx$.

3. 1. 9. a) $\int_0^{\sqrt{3}} \frac{\arctan x + x}{1+x^2} dx$; b) $\int_{-1}^1 x^2 e^{-\frac{x}{2}} dx$; v) $\int_0^{5/2} \frac{x^2}{\sqrt{25-x^2}} dx$.

3. 1. 10. a) $\int \frac{\sqrt{8}x - \frac{1}{\sqrt{3}}}{\sqrt{x^2+1}} dx$; b) $\int_0^{\pi/2} (1-5x^2)\sin x dx$; v) $\int_0^{\pi/2} \frac{\sin x}{2+\sin x} dx$.

3. 1. 11. a) $\int_0^{\sqrt{3}} \frac{x - (\arctan x)^4}{1+x^2} dx$; b) $\int_0^{2\pi} (3x^2+5)\cos 2x dx$; v) $\int_0^2 \frac{dx}{(4+x^2)\sqrt{4+x^2}}$.

3. 1. 12. a) $\int_1^3 \frac{1-\sqrt{x}}{\sqrt{x}(x+1)} dx$; b) $\int_{-1}^0 (x+2)^3 \ln^2(x+2) dx$; v) $\int_0^{\pi/2} \frac{\sin x}{5+3\sin x} dx$.

3. 1. 13. a) $\int_1^e \frac{1+\ln x}{x} dx$; b) $\int_0^{\pi} (x^2-3x+2)\sin x dx$; v) $\int_{-3}^3 x^2\sqrt{9-x^2} dx$.

3. 1. 14. a) $\int \frac{dx}{\sqrt{2}x\sqrt{x^2-1}}$; b) $\int_{-3}^0 (x^2+2)e^{\frac{x}{3}} dx$; v) $\int_0^{\pi/4} \frac{dx}{\cos x(1+\cos x)}$.

3. 1. 15. a) $\int_0^1 \frac{x}{\sqrt{x^4+x^2+1}} dx$; b) $\int_1^8 \frac{\ln^2 x}{\sqrt[3]{x^2}} dx$; v) $\int_0^{\sqrt{2}/2} \frac{x^4}{\sqrt{(1-x^2)^3}} dx$.

3. 1. 16. a) $\int_1^e \frac{x^2 + \ln x^2}{x} dx$; b) $\int_0^{2\pi} (2x^2 - 15)\cos 3x dx$; v) $\int_0^{\pi/2} \frac{dx}{(1 + \sin x + \cos x)^2}$.

3. 1. 17. a) $\int_0^1 \frac{x^3}{(x^2 + 1)^2} dx$; b) $\int_0^2 (x+1)^2 \ln^2(x+1) dx$; v) $\int_0^2 \frac{x^2}{\sqrt{16-x^2}} dx$.

3. 1. 18. a) $\int_0^1 \frac{x}{x^4 + 1} dx$; b) $\int_{-1}^0 (x^2 + 2x + 1)\sin 3x dx$; v) $\int_0^{2\pi/3} \frac{\cos^2 x}{(1 + \cos x + \sin x)^2} dx$.

3. 1. 19. a) $\int_0^{2\pi} \frac{1 - \cos x}{(x - \sin x)^2} dx$; b) $\int_{-2}^0 (x^2 + 1)e^{\frac{x}{2}} dx$; v) $\int_0^2 \frac{dx}{\sqrt{(16-x^2)^3}}$.

3. 1. 20. a) $\int_0^{\pi/4} \operatorname{tg} x \ln \cos x dx$; b) $\int_{-2}^0 (x^2 + 5x + 6)\cos 2x dx$; v) $\int_0^{2\pi/3} \frac{1 + \sin x}{1 + \cos x + \sin x} dx$.

3. 1. 21. a) $\int_{-1}^0 \frac{\operatorname{tg}(x+1)}{\cos^2(x+1)} dx$; b) $\int_2^3 (x-1)^3 \ln^2(x-1) dx$; v) $\int_0^1 \frac{x^2}{\sqrt{4-x^2}} dx$.

3. 1. 22. a) $\int_0^1 \frac{x^3 + x}{x^4 + 1} dx$; b) $\int_0^3 (x^2 - 3x)\sin 2x dx$; v) $\int_0^{\pi/2} \frac{1 + \cos x}{1 + \cos x + \sin x} dx$.

3. 1. 23. a) $\int_{\pi/4}^{\pi/2} \frac{x \cos x + \sin x}{(x \sin x)^2} dx$; b) $\int_{-1/2}^0 (x^2 + 2)e^{-2x} dx$; v) $\int_0^4 x^2 \sqrt{16-x^2} dx$.

3. 1. 24. a) $\int_2^9 \frac{x}{\sqrt[3]{x-1}} dx$; b) $\int_0^{\pi} (2x^2 + 4x + 7)\cos 2x dx$; v) $\int_{\pi/3}^{\pi/2} \frac{\cos x}{1 + \sin x - \cos x} dx$.

3. 1. 25. a) $\int_0^1 \frac{x^3}{x^2 + 1} dx$; b) $\int_{-2}^0 (x+3)\ln^2(x+3) dx$; v) $\int_0^1 \frac{x^4}{\sqrt{(2-x^2)^3}} dx$.

3. 1. 26. a) $\int_{\sqrt{2}}^{\sqrt{3}} \frac{x}{\sqrt{x^4 - x^2 - 1}} dx$; b) $\int_0^{\pi} x^2 \sin \frac{x}{2} dx$; v) $\int_0^{\pi/2} \frac{\sin x}{1 + \cos x + \sin x} dx$.

3. 1. 27. a) $\int_0^{\pi/4} \frac{\sin x - \cos x}{(\cos x + \sin x)^5} dx$; b) $\int_0^1 (x^2 - 1)e^{5x} dx$; v) $\int_1^{\sqrt{3}} \frac{dx}{\sqrt{(1+x^2)^3}}$.

3. 1. 28. a) $\int_0^{1/\sqrt{2}} \frac{(\arccos x)^3 - 1}{\sqrt{1-x^2}} dx$; b) $\int_0^1 \sqrt{x+1} \ln^2(x+1) dx$; v) $\int_0^2 \frac{\cos x}{1 + \cos x + \sin x} dx$.

3. 1. 29. a) $\int_0^{\sin 1} \frac{(\arcsin x)^2 + 1}{\sqrt{1-x^2}} dx$; b) $\int_0^{\pi} x^2 \cos \frac{x}{2} dx$; v) $\int_0^{\sqrt{2}} \frac{x^4}{\sqrt{(4-x^2)^3}} dx$.

$$3.1.30. \text{ a) } \int \frac{\sqrt{8}}{\sqrt{3}x\sqrt{x^2+1}} dx; \quad \text{b) } \int_1^4 \frac{\ln^2 x}{\sqrt{x}} dx; \quad \text{v) } \int_0^{\pi/2} \frac{\sin^2 x}{(1+\cos x+\sin x)^2} dx.$$

2 – masala. Hosmas integrallarni yaqinlashishga tekshiring.

$$3.2.1. \text{ a) } \int_{-\infty}^{+\infty} \frac{dx}{x^2+2x+2};$$

$$\text{b) } \int_0^1 \frac{dx}{\sqrt{1-x}}.$$

$$3.2.2. \text{ a) } \int_1^{+\infty} \frac{dx}{(1+x)\sqrt{x}};$$

$$\text{b) } \int_0^1 x \ln x dx.$$

$$3.2.3. \text{ a) } \int_9^{+\infty} \frac{dx}{x \ln^3 x};$$

$$\text{b) } \int_{-1}^0 \frac{dx}{\sqrt[3]{1+x}}.$$

$$3.2.4. \text{ a) } \int_{-\infty}^{+\infty} \frac{dx}{x^2+2x+1};$$

$$\text{b) } \int_0^{1/e} \frac{dx}{x \ln^2 x}.$$

$$3.2.5. \text{ a) } \int_4^{+\infty} \frac{dx}{x\sqrt{x}};$$

$$\text{b) } \int_{-1}^0 \frac{dx}{(x+1)^2}.$$

$$3.2.6. \text{ a) } \int_1^{+\infty} \frac{\ln(x+1)}{x+1} dx;$$

$$\text{b) } \int_1^2 \frac{x}{\sqrt{x-1}} dx.$$

$$3.2.7. \text{ a) } \int_1^{+\infty} \frac{dx}{x^2+4x};$$

$$\text{b) } \int_0^e \frac{dx}{x\sqrt{\ln x}}.$$

$$3.2.8. \text{ a) } \int_3^{+\infty} \frac{x}{x^2-4} dx;$$

$$\text{b) } \int_0^{1/2} \frac{dx}{(2x-1)^3}.$$

$$3.2.9. \text{ a) } \int_2^{+\infty} \frac{dx}{x \ln x};$$

$$\text{b) } \int_0^4 \frac{dx}{x\sqrt{x}}.$$

$$3.2.10. \text{ a) } \int_2^{+\infty} \frac{1+x^2}{x^3} dx;$$

$$\text{b) } \int_1^2 \frac{dx}{x \ln x}.$$

$$3.2.11. \text{ a) } \int_{-\infty}^0 \frac{dx}{1+x+x^2};$$

$$\text{b) } \int_0^4 \frac{dx}{\sqrt{4-x}}.$$

$$3.2.12. \text{ a) } \int_{\sqrt{2}}^{+\infty} \frac{dx}{x\sqrt{x^2-1}};$$

$$\text{b) } \int_0^2 \frac{dx}{(x-1)^2}.$$

$$3.2.13. \text{ a) } \int_0^{+\infty} e^{-3x} dx;$$

$$\text{b) } \int_0^1 \frac{x^4}{\sqrt{1-x^5}} dx.$$

$$3.2.14. \text{ a) } \int_0^{+\infty} \frac{x}{(1+x)^2} dx;$$

$$\text{b) } \int_0^1 \frac{dx}{x^3\sqrt{x}}.$$

$$3.2.15. a) \int_0^{+\infty} x e^{-x^2} dx;$$

$$b) \int_0^1 \frac{dx}{x^2 - 4x + 3}.$$

$$3.2.16. a) \int_e^{+\infty} \frac{\sqrt{\ln x}}{x} dx;$$

$$b) \int_{-3}^2 \frac{dx}{(x+3)^2}.$$

$$3.2.17. a) \int_0^{+\infty} e^{-\sqrt{x}} dx;$$

$$b) \int_0^4 \frac{dx}{\sqrt[3]{(x-3)^2}}.$$

$$3.2.18. a) \int_0^{+\infty} \frac{dx}{(2x+1)^2};$$

$$b) \int_0^1 x^2 \ln x dx.$$

$$3.2.19. a) \int_0^{+\infty} e^{-5x} dx;$$

$$b) \int_0^1 \frac{x^3}{\sqrt{1-x^4}} dx.$$

$$3.2.20. a) \int_1^{+\infty} \frac{dx}{x^2(x+1)};$$

$$b) \int_0^{e-1} \frac{dx}{(x+1)\ln(x+1)}.$$

$$3.2.21. a) \int_2^{+\infty} \frac{dx}{x\sqrt{\ln x}};$$

$$b) \int_2^3 \frac{dx}{(x-2)^3}.$$

$$3.2.22. a) \int_0^{+\infty} \frac{x}{(1+x)^3} dx;$$

$$b) \int_0^1 \frac{x^5}{\sqrt{1-x^6}} dx.$$

$$3.2.23. a) \int_1^{+\infty} \frac{x^2}{1+x^6} dx;$$

$$b) \int_0^{\pi/2} \operatorname{ctg} x dx.$$

$$3.2.24. a) \int_1^{+\infty} \frac{dx}{(x+1)\ln(x+1)};$$

$$b) \int_{-1}^3 \frac{dx}{(x+1)\sqrt{x+1}}.$$

$$3.2.25. a) \int_1^{+\infty} \frac{dx}{x^2+3x};$$

$$b) \int_0^1 x^3 \ln x dx.$$

$$3.2.26. a) \int_0^{+\infty} e^{-2x} dx;$$

$$b) \int_2^3 \frac{x-1}{\sqrt{x-2}} dx.$$

$$3.2.27. a) \int_1^{+\infty} \frac{x}{1+x^4} dx;$$

$$b) \int_1^e \frac{dx}{x^3 \sqrt{\ln x}}.$$

$$3.2.28. a) \int_1^{+\infty} \frac{dx}{x\sqrt{1+x^2}};$$

$$b) \int_{-\infty}^{\pi/2} \operatorname{tg} x dx.$$

$$3.2.29. a) \int_0^{+\infty} x^2 e^{-x^3} dx;$$

$$b) \int_0^1 \frac{x^2}{\sqrt{1-x^3}} dx.$$


$$3. 2. 30. a) \int_{-\infty}^3 \frac{x}{(x^2+1)^3} dx;$$

$$b) \int_0^2 \frac{x^5}{\sqrt{4-x^2}} dx.$$

4 – topshiriq

Mavzu: Aniq integralning tadbiqu

Nazariy tushunchalar. Agar $[a;b]$ kesmada funksiya manfiy bo'lmasa, u holda $I = \int_a^b f(x)dx$ aniq integral $y = f(x)$ funksiya grafigi, Ox o'qi, $x=a$ va $x=b$ chiziqlar bilan chegaralangan egri chiziqli trapetsiyaning yuzini ifodalaydi.



Ushbu

$$S = \int_a^b \sqrt{1 + (f'(x))^2} dx$$

formula yordamida $f(x)$ funksiya grafigining $x=a$ va $x=b$ chiziqlar orasiga joylashgan qismining uzunligini hisoblash mumkin.

Ushbu

$$V_{Ox} = \pi \int_a^b (f(x))^2 dx,$$

$$V_{Oy} = \pi \int_c^d (\varphi(y))^2 dy$$

formulalar yordamida $y = f(x)$ funksiya grafigining $[a;b]$ kesmadagi qismini Ox o'qi atrofida aylanishidan, $x = \varphi(y)$ funksiya grafigining $[c;d]$ kesmaga mos qismini Oy o'qi atrofida aylantirishdan hosil bo'lgan aylanma jismning hajmini hisoblash mumkin.

Agar $y = f(x)$ funksiya $[a, b]$ intervalda silliq egri chiziq bo'lsa, u holda bu chiziqning $[a, b]$ intervaldagi L uzunligi

$$L = \int_a^b \sqrt{1 + [f'(x)]^2} dx$$

bilan aniqlanadi. Ushbu natija yoy uzunligini ham ta'riflaydi, ham hisoblash formulasi bo'lib hizmat qiladi, ya'ni

$$L = \int_a^b \sqrt{1 + [f'(x)]^2} dx = \int_a^b \sqrt{1 + \left(\frac{dy}{dx}\right)^2} dx$$

Bundan tashqari, agar egri chiziq $x = g(y)$ ko'rinishda berilgan bo'lib, bunda g' $[c, d]$ intervalda uzluksiz bo'lsa, u holda L uzunligi $y = c$ dan $y = d$ gacha quyidagicha formula orqali topiladi:

$$L = \int_c^d \sqrt{1 + [g'(y)]^2} dy = \int_c^d \sqrt{1 + \left(\frac{dx}{dy}\right)^2} dy$$

Faraz qilaylik,

$$x = \varphi(t),$$

$$y = \psi(t)$$

funksiyalar $[\alpha, \beta]$ da uzluksiz va uzluksiz hosilalarga ega bo'lsin. Bu funksiyalarning $t_0 \in [\alpha, \beta]$ nuqtadagi qiymatlari

$$x_0 = \varphi(t_0), \quad y_0 = \psi(t_0)$$

dan tashkil topgan (x_0, y_0) juftlik, tekislikda koordinatalari x_0 va y_0 bo'lgan $(x_0; y_0)$ nuqtani ifodalaydi. t o'zgaruvchi $[\alpha, \beta]$ da o'zgarganida unga mos

$$x = \varphi(t), \quad y = \psi(t)$$

funksiya qiymatlaridan tashkil topgan (x, y) juftliklar to'plami tekislikda biror egri chiziqni tasvirlaydi.

Berilgan sistema egri chiziqning parametrik tenglamasi deyiladi, t esa parametr deyiladi.

Aytaylik, $\overset{\sim}{AB}$ egri chiziq yuqoridagi sistema bilan berilgan bo'lsin. Uning uzunligi ushbu


$$l = \int_{\alpha}^{\beta} \sqrt{\varphi'^2(t) + \psi'^2(t)} dt$$

integral yordamida topiladi.

Mavzuga doir misollarni yechishga namunalar

1-misol. Ushbu $y = x^3$ va $y = \sqrt{x}$ funksiyalarning grafiklari bilan chegaralangan tekis figuraning yuzini hisoblang.

Yechish. 1) Shaklni yasaymiz.




2) shakldan $a = 0, b = 1, f(x) = \sqrt{x}, \varphi(x) = x^3$ ekanligini hosil qilamiz.

